



ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil
Ma'qullandi: 28-May 2025 yil
Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

KEYWORDS

Texnologiyalar, interaktiv o'yinlar, sharq tillari, qiziqarli o'yinlar, foydali ilovalar, madaniyat.

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR ORQALI SHARQ TILLARINI O'RGANISH HAMDA TILI O'RGANILAYOTGAN MAMLAKAT MADANIYATINI BILISHNING ROLI

Kenjayeva Sabohat Shuxrat qizi

Koreys tili yo'nalishi, Sharq filologiyasi fakulteti,
O'zDJTU, Toshkent, O'zbekiston

Sabohatkenjayeva0620@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15593365>

ABSTRACT

Axborot asri bo'lgan XXI asrda zamonaviy texnologiyalar kirib bormagan sohaning o'zi bo'lmasa kerak. Albatta, ushbu texnologiyalarning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish o'zimiz uchun foydalidir va sharq tillarini o'rganishni istovchi insonlar ham ushbu zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlar orqali o'z manzillariga yanada tezroq yetib borsalar ajab emas. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlarning ta'limdagi ahamiyati haqida suhbatlashish bilan birga bir nechta metodlarni ko'rib chiqamiz.

1. Zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.

Barchamizga ma'lumki, XXI asr axborot asridir. Qanchalik bu haqiqatni inkor etishga urinmaylik, yosh avlod har qanday yangilikni o'zlarining brand telefon, planshet yoki kompyuterlaridan bilib olishi, maktabdan so'ng, ko'chaga chiqib to'p o'ynashdan ko'ra smartfonida video o'yinlar o'ynashni avzal ko'rishi turgan gap. Hamda ushbu holatda bolaning qo'lidan telefonni olib qo'yish uni axborot asri avlodi ekanligini hisobga olsak, uni o'qish ko'rsatkichlari yaxshilanishiga sezilarli darajada turtki bo'la olmaydi. Ushbu holda yosh avlodning qiziqishlaridan kelib chiqib, zamonaviy texnologiyalarni dars jarayonlarida tadbiq qilish eng to'g'ri tanlov va hozirda ushbu ish amalga oshirilayotgani va o'z natijasini berayotgani kishini quvontiradi. Mamnun bo'lish joizki, ushbu fikr ko'pchilik insonlar tomonidan maqullangan va ta'limning har sohasida o'z joyini egallamoqda, til o'rganish ham bundan mustasno emas, albatta.

2. Til o'rganishga yo'naltirilgan sayt, platforma, ilova hamda turli online harakatlar.

Til o'rganish, ayniqsa Koreys, Xitoy, Yapon kabi tillarni o'rganish jarayoni o'ylaganingizdan qiyinroq tuyulishi mumkin. Ushbu mashaqqatli va sinovga boy sayohatda sizning yo'ldoshingiz bo'lishga arziydigan bir nechta sayt va ilovalar borki, ular bilan sizning sayohatingiz anchayin qiziqarli va tezroq amalga oshsa ajab emas.

Duolingo ilovasi butun dunyoning 100dan ortiq tillarini o'rganishda sizga qo'l keladi va ushbu ilovadan foydalanish bepulligining o'zi ham til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqingizni oshirsa ajab emas.

Kahoot ilovasi bo'lsa o'rgangan bilimlaringizni har xil usullarda tekshirish va mustahkamlash imkonini beradi. Unda o'zingiz istagancha testlar va quizlar tuzib, sinf yoki guruhdoshlaringiz bilan ishlashingiz mumkin.

Anki app lug'at yodlash jarayonini ancha tezlashtiradi. Unda o'zingiz istagan 2 ta tildagi lug'atlarni kiritish orqali onlayn flashcardlar tuzishingiz mumkin. Ilovaning siz o'zlashtirgan so'zlarni ilg'ab olib, o'zlashtirishga qiynalayotgan so'zlaringizni qayta qayta so'rov qilishi sizni har bir kiritgan lug'atingizni to'liq yodlashingizga turtki bo'ladi.

Coursera ilovasi o'zida turli sohalarga oid bo'lgan video darsliklarni to'plagan platformadir. Unda o'zingiz qiziqqan soha bo'yicha video darslarni ko'rishingiz va video darslarni to'liq tugatgach, ushbu kursni to'liq tugatganingiz haqidagi onlayn sertifikatni qo'lga kiritishingiz mumkin.

Ibrat farzandlari You tube platformasidagi ushbu kanalda ham turli tillarni o'rgatuvchi video darsliklar yuklatiladi hamda ushbu videolar mutlaqo bepul va sifatli ekanligi ham uni til o'rganish ishtiyog'idagi o'zbek yoshlari orasida mashxur qiladi.

Tepada sanalgan barcha platforma, sayt va ilovalardan foydalanish bepulligidan xulosa qilish joizki, "Til bilgan el biladi" kabi o'zbek xalq maqollari qandaydir eskilik sarqiti emas, butun dunyo tomonidan asrlar osha tan olinib kelinayotgan haqiqatdir va insonlarning til o'rganish jarayonida o'zining kammi ko'pmi hissasini qo'shayotgan ushbu platformalarning tuzuvchilariga minnatdorchilik bildirsa arziydi.

3. Gamifikatsiya va guruhli topshiriqlar.

Gamifikatsiya – bu ta'lim jarayonida o'yinlardan foydalanishdir. Turli qiziqarli o'yinlardan foydalangan holda til o'rganish jarayonni ko'tarinki ruhda o'tishini ta'minlagan holda, o'rganilgan bilimlar xotirada yaxshiroq qolishiga sabab bo'ladi. Uy ishi tekshirish, lug'at topshirish, o'rgatilgan grammatika yo yangi so'zlarni qatnashtirgan holda gap tuzish ba'zida stressli va hatto qo'rqinchli bo'lishi mumkin. Agarda til o'rganuvchi introvert yoki jamoat joylarida o'zini noqulay sezaigan inson bo'lsa, bu holat talaba uchun til o'rganishning eng qiyin qismi bo'lishi ham mumkin. Shunaqa holatlarda do'stona muhit yaratish, xato qilsada davom etish kerakligini anglatish va o'quvchilar orasida sog'lom raqobatni rivojlantirishda qo'l keluvchi metod aynan gamifikatsiyadir.

Yana bir e'tibordan chetda qolmasligi kerak bo'lgan narsa bu guruhli topshiriqlardir. Guruhli topshiriqlar talabalarni birgalikda ishlashga chorlaydi va kerakli muddatlarda boshqalardan yordam olish yaxshi ekanligini tushuntiradi. Ko'pchilik o'zbek yoshlari kimdandir yordam olishni xohlashmaydi, aniqrog'i, nimadirdan qiynalayotgan bo'lsa-yu, buni bartaraf qilishni xohlasa ham, boshqa birovga buni aytgisi kelmaydi. Qanchalik achinarli bo'lmasin, hayot hech kimga suyanmaslik kerakligini uqtirib qo'ygan odamlar ancha. Aynan shu toifadagi talabalar guruhli topshiriqlarda qatnashish orqali guruhdoshidan o'zi bilmagan narsani o'rganishi, asosiysi, o'zi biladigan narsalarni boshqa guruhdoshlariga yetqazish orqali kam bo'lsada insonlarga bilim ulashishi mumkin. Guruhli topshiriqlar talabalarga "bir kalla – kalla, ikki kalla – tilla" maqolini yaqqol ko'rsatib, isbotlab beradi va talabaning o'rganilayotgan tillardagi mahorati oshishida o'z vazifasini bajaradi.

4. Sharq tillarini o'rganishda o'rganilayotgan davlat madaniyati bilan tanishlik

Biror tilni o'rganayotganda ushbu tilning madaniyatini ham qo'shib o'rganish joizdir. Zero, o'sha tilda muloqot qiladigan xalqning so'zlashish uslubi, tarixi, etnikasini bilish bevosita tilni o'zlashtirish jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Misol qilib aytadigan bo'lsak, Koreyada endi tug'ilgan bola bir yosh deb hisoblanadi hamda har yangi yil kirganda ular yana bir yoshga to'lgan deb hisoblanadi. Ya'ni, 2024-yil 31-dekabrda tug'ilgan bola va 2025-yil 1-yanvarda tug'ilgan bola orasida 1 yosh farq bo'ladi va bittasi kecha tug'ilganiga qaramay allaqachon 2

yosh, boshqasi bo'sa endigina 1 yosh deb hisoblanadi. Biroq, bu narsani bilmaslik koreys tilini mukammal bilsangiz ham sizda ba'zi savollarni keltirib chiqaradi va ilk o'qiganingizda bu sizga ma'nosizdek tuyulishi ham mumkin, hattoki. Yana bir misol tariqasida, Xitoyda ayol kishining go'zalligini ta'riflash uchun sigirdan foydalanishar ekan. O'zbekistonda esa go'zal ayol ohuga, kiyikka qiyoslanadi, aksincha, ota-onalar farzandiga tanbeh berayotganda ularni sigirga o'xshatishadi. Bu faktorni ko'zdan qochirish vaqti kelib tushunmovchilikka sabab bo'lishi turgan gap. Shu va shunga o'xshash ko'plab faktorlar borki, tillarni o'rganayotganda uning madaniyati, insonlarni fikrlash usulini ham qo'shib o'rganish naqadar muhim omilligini ko'rsatib beradi.

Xulosa.

Zamonaviy texnologiyalar asrida yashayapmiz ekan, biz ham unga moslashgan holda bilim olishni va bilim ulashishni davom ettirishimiz kerak. Sharq tillarini interaktiv metodlar orqali o'rganish va o'rgatish zamon talabidir. Turli saytlar, ilovalardan foydalanib, qiziqarli o'yinlar o'ynagan holda, tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatini o'rganish bilan olib boriladigan chet tili darslari darsning yodda qolish samaradorligini oshirib berar ekan, buni qilmaslik uchun hech qanday to'siq yoki bahona bo'lmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. - T.: Fan, 2005.
2. Mubarakova D. A Media Matn Tarjimasida Lingvomadaniy va Sotsiolingvistik Aspektlar. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 26 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7
3. Mubarakova D., Yunusova N., The Paradigm Of Relationship Between Teacher And Student In The Proccess of Teaching Oriental Language In Higher Schools of Uzbekistan. Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 4, 2021 p. 249-260

INNOVATIVE
ACADEMY